

VOYAGA YETMAGANLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIKNING KELIB CHIQISH OMILLARI VA ULARNI YUZAGA KELTIRUVCHI IJTIMOY MUHIT SHAROITLARI

Abdumalikov A.A. -
O'zbekiston Respublikasi
Kriminologiya tadqiqot instituti
mustaqil izlanuvchisi

Voyaga yetmaganlar o'rtasida jinoyatchilikning kuchayishi zamonaviy jamiyat uchun eng dolzarb ijtimoiy-muammolardan biri hisoblanadi. O'smirlarning huquqbuzarlikka moyilligi ko'pincha ularning tug'ma xususiyatlari bilan emas, balki ijtimoiy muhitdagi izdan chiqishlar, oiladagi tarbiya muammolari, ta'lim-tarbiya jarayonidagi bo'shliqlar va nazoratning susayishi bilan bog'liq bo'ladi. Jamiyatda sodir bo'layotgan iqtisodiy, demografik va ma'naviy o'zgarishlar voyaga yetmaganlarning xulq-atvoriga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shu bois mazkur jarayonning ildiz omillarini aniqlash, ijtimoiy-muhitning salbiy jihatlarini baholash hamda profilaktika choralarini ishlab chiqish davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda yoshlar tarbiyasi, huquqbuzarlikning oldini olish va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash borasida qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 sentabrdagi PF-5812-son Farmoni "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi hujjatda yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini kuchaytirish, ularni turli salbiy ta'sirlardan himoya qilish va jinoyatchilikning oldini olish davlat siyosatining ustuvor vazifalari sifatida belgilab qo'yilgan[1]. Mazkur hujjat voyaga yetmaganlar hayotida ijtimoiy-muhit omillarining muhimligini e'tirof etib, ta'lim, oila va mahalla tizimining o'zaro hamkorligini mustahkamlashni nazarda tutadi.

Shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 2 fevraldagi 66-son Qarori "Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish va ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi hujjatida huquqbuzarlikka moyil o'smirlarni erta aniqlash, ular bilan manzilli ishlash, ijtimoiy xizmatlarni yaxshilash va profilaktika tizimini takomillashtirish bo'yicha aniq mexanizmlar belgilangan [2]. Qarorda mahalla faollari, maktab psixologlari, ichki ishlar organlari, ta'lim muassasalari va ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi tuzilmalarning o'zaro integratsiyasi alohida e'tiborga olingan.

Mazkur normativ-huquqiy hujjatlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga olib keluvchi omillarni tizimli o'rganish va ularni bartaraf etish bo'yicha kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Zero, o'smirlarning huquqbuzarligi nafaqat shaxsiy xulq-atvor xususiyatlari, balki ular yashayotgan ijtimoiy muhitning barqarorligi, oiladagi munosabatlar sifati, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligi va nazorat tizimining kuchliligi bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ushbu mavzuni ilmiy asosda o'rganish voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini kamaytirishning muhim sharti bo'lib xizmat qiladi.

Jinoyatchilikning kelib chiqishi kriminologiya fanining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash jinoyatlarning oldini olish bo'yicha ilmiy asoslangan mexanizmlarni ishlab chiqishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Jinoyat sodir bo'lishi tasodifiy hodisa emas, balki muayyan ijtimoiy, psixologik va ma'naviy omillar ta'siri ostida shakllanadigan murakkab jarayondir. Shu sababli jinoyatga olib keluvchi omillarni to'g'ri talqin qilish va ular o'rtasidagi farqlarni aniqlash nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham muhim hisoblanadi.

Jinoyatchilik sabablari jinoyatning sodir etilishini bevosita taqozo qiladigan, uni shakllantiradigan va kengaytiradigan hodisa, voqea va jarayonlar majmuasidir. Ular jinoyatning yuzaga kelishiga bevosita turtki beruvchi ichki mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, jinoyat shart-sharoitlari esa jinoyatni bevosita keltirib chiqarmasa-da, uning sodir etilishini osonlashtiradigan, unga qo'shimcha imkon yaratadigan ijtimoiy omillar majmuini anglatadi. Ya'ni,

shart-sharoitlar sabab singari turtki bermaydi, biroq jinoyatning amalga oshishiga qulay muhit yaratadi.

Bu borada S.B. Xo'jaqulovning fikrlari alohida ahamiyatga ega. Unga ko'ra, shaxs ongida mavjud bo'lgan g'ayriijtimoiy xulq-atvor huquqbuzarlikning sababini tashkil etsa, huquqbuzarlik sodir etilgan paytdagi muayyan ijtimoiy muhit esa uning sodir bo'lishiga imkon yaratgan shart-sharoit sifatida namoyon bo'ladi. Muallifning ta'kidlashicha, targ'ibot-tashviqot ishlarining sustligi yoki jamoatchilik nazoratining yetarli emasligi "sabab" emas, balki aynan "sharoit" sifatida baholanishi lozim [3, 93].

M. Berlybekova ta'kidlaganidek, "sabab katta hajmli va ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning bir qismi jinoyiy motivni yuzaga keltirsa, yana bir qismi ushbu motivni anglash va kuchayishiga yordam beradi, boshqa bir qismi esa mazkur motivlarning amaliyotga tatbiq etilishiga sharoit yaratadi" [4, 22]. N.T. Ismoilov esa "sababning o'zi shart-sharoit bilan o'zaro ta'sir orqali namoyon bo'ladi va oqibatni keltirib chiqaradi" deb izohlaydi [5, 44]. Ushbu fikrlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, jinoyatning sababi bir yoqlama hodisa emas, balki murakkab tarkibga ega bo'lgan, tizimli ravishda ta'sir ko'rsatuvchi omillar majmuidir. Berlybekova sababning ko'p qatlamli tabiatiga urg'u beradi: jinoyiy xatti-harakatning boshlanishi, motivning shakllanishi, uning kuchayishi va amaliyotga o'tishi bosqichma-bosqich amalga oshadi va sababning turli qirralari ushbu jarayonlarning har birida o'z roliga ega bo'ladi. Ushbu nazariya sababni ichki psixologik jarayonlar bilan bog'lashga imkon beradi.

Ismoilovning qarashi esa sabab va shart-sharoit o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni alohida ta'kidlaydi. Muallif nazarida sabab faqat o'zi bilan kifoyalanmaydi; u muayyan shart-sharoitlar bilan to'qnashgandagina real oqibat ya'ni jinoyat yuzaga keladi. Demak, jinoyat sababi va shart-sharoit yagona mexanizm sifatida ishlaydi: sabab mazmunni belgilasa, shart-sharoit ushbu mazmunning ro'yobga chiqishi uchun qulay zamin yaratadi. Shu bois har ikkala olimning fikrlari jinoyatchilikning kelib chiqish mexanizmini chuqurroq anglashga yordam beradi: sabab ichki turtki sifatida, shart-sharoit esa ushbu turtkning amaliy harakatga aylanishiga imkon beruvchi tashqi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqorida ko'rib o'tilgan sabab va shart-sharoitlar real hayot amaliyotida ham o'z tasdig'ini topmoqda. Farg'ona viloyati bo'yicha o'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar avvalgi yilga nisbatan taxminan 6 % ga oshgan. Farg'ona viloyati bo'yicha o'tkazilgan tahlillar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining tarkibi va dinamikasida jiddiy ijtimoiy muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Yil davomida sodir etilgan jinoyatlarning umumiy soni asosida hisoblaganda, jinoyatlarning qariyb yarmi 46 % ini o'g'irlik tashkil qilgani aniqlangan. Bu ko'rsatkich o'smirlar orasida o'g'irlik jinoyatlari eng ko'p uchraydigan huquqbuzarlik turi ekanini yaqqol tasdiqlaydi. Shuningdek, jinoyatlarning deyarli 4 % ini bezorilik, taxminan 4 % ini giyovandlik bilan bog'liq jinoyatlar, 2-3 % atrofni esa talonchilik, bosqinchilik va boshqa og'ir turdagi jinoyatlar tashkil etadi.

Jinoyatlarni sodir etgan voyaga yetmaganlarning tuzilmasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, jinoyatchilarning taxminan 94 % ini maktab o'quvchilari tashkil etadi. Bu esa jinoyatchilikning asosiy qismi aynan ta'lim yoshi va maktab muhiti bilan chambarchas bog'liq ekanidan dalolat beradi. Shuningdek, jinoyat sodir etganlarning qariyb 10 % ga yaqini qizlar ekani, so'nggi yillarda qizlar orasida ham huquqbuzarlikning o'sish dinamikasi mavjudligini ko'rsatadi. Profilaktika nuqtai nazaridan muhim jihat shundaki, viloyatda voyaga yetmaganlar sodir etgan jinoyatlarning 90 % dan ortig'i aslida oldini olish mumkin bo'lgan jinoyatlar toifasiga kiradi. Bu ko'rsatkich jinoyatchilikning shakllanishi ko'proq nazoratning yetishmasligi, tarbiyadagi bo'shliqlar va tashqi muhit ta'sirining yuqoriligi bilan bog'liq ekanini tasdiqlaydi.

Oilaviy muhitga doir tahlillar ham xavfli holatni ko'rsatadi. Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning:

- 3-4 % - ota-onasi chet elga ketgan oilalarga mansub;
- 2-3 % - ota-onasi sudlangan oilalarda yashovchi;
- 1-2 % - ota-onasi profilaktik hisobda turgan;

2 % atrofida - ajrim yoqasidagi oilalarda tarbiyalanayotgan voyaga yetmaganlar; Eng katta qismi 80 % dan ortig'i tashqi tomondan sog'lom ko'rinadigan, ammo ichki nazorati sust bo'lgan oilalardir. Bu raqamlar voyaga yetmaganlarning jinoyatchilikka jalb etilishi ko'pincha oiladagi beparvolik, ro'zg'ordagi tarbiyaviy bo'shliq, ota-onaning vaqt yetishmasligi yoki mas'uliyatsizligi bilan bog'liq ekanini yaqqol tasdiqlaydi.

Shuningdek, ta'lim muassasalaridagi vaziyat ham tashvishli bo'lib, viloyatdagi maktablarning sezilarli qismi qizil toifaga kiradi. Maktab hududida sodir etilgan jinoyatlar ulushi umumiy ko'rsatkichning sezilarli qismiga to'g'ri keladi, bu esa maktabda nazorat va psixologik xizmatlarni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Profilaktika doirasida o'tkazilgan tadbirlar natijasida dars qoldirayotgan o'quvchilarning katta qismi o'qishga qaytarilgan bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi tizimli kamchiliklar hanzur mavjud. Voyaga yetmaganlarning profilaktik hisobga olinishi va ularga nisbatan tarbiyaviy choralar qo'llanishi ijobiy natijalar bersa-da, son jihatdan yuqori foizlar ushbu yo'nalishda izchil, kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, Farg'ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligini foizlarda ifodalangan tahlil shuni ko'rsatadiki, jinoyatlarning asosiy qismi nazoratning sustligi, oilaviy tarbiya bo'shligi, ta'lim muhitidagi kamchiliklar va ijtimoiy-psixologik omillar bilan bevosita bog'liqdir. Bu esa jinoyatchilikning oldini olishda faqat jazolashga emas, balki sabab va sharoitlarni bartaraf etishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlarni talab qiladi.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, Farg'ona viloyati bo'yicha o'smirlar jinoyatchiligini tahlil qilish natijalari jinoyatlarning eng katta qismini o'g'irliklar tashkil etayotganini, bu esa ma'naviy tarbiya, oilaviy nazorat va ijtimoiy muhitdagi bo'shliqlar bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Jinoyat sodir etganlarning katta qismi maktab o'quvchilari bo'lgani ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlar, psixologik yordam va nazoratni kuchaytirish zarurligini anglatadi. Oiladagi e'tiborsizlik, ota-onaning nazoratsiz qoldirishi, nosog'lom muhit va internetning salbiy ta'siri esa jinoyatchilikni shakllantiruvchi muhim shart-sharoitlarga aylangan. Tahlil shuni ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi aslida o'z vaqtida profilaktika choralarni kuchaytirish orqali oldi olinishi mumkin bo'lgan holatlardir. Shu bois kompleks, izchil va maqsadli tarbiyaviy va ijtimoiy choralar jinoyatchilikni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Respublikasi Prezidentining PF-5812-son Farmoni. Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 13 sentyabr 2019 yil.
2. Ўзбекистон Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 66-son Qarori. Voyaga yetmaganlar huquqbuzarligining oldini olish va ularning ijtimoiy-huquqiy himoyasini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2 fevral 2021 yil.
3. Xo'jaqulov S.B. Huquqbuzarliklar umumiy profilaktikasini takomillashtirish (Ichki ishlar organlari faoliyati misolida): yurid. fan. dok. ... dis. - T., 2018. - B. 93.
4. М.Берлыбекова. Причины, сопособствующие совершению женщинами умышленных убийств / Предупреждение преступности (криминологический журнал). Казахстан. 2005. № 1 (9). - С. 22.
5. Исмоилов Н.Т. Вояга етмаганлар жиноятларини индивидуал олдини олиш муаммолари. Юрид. фан. номз. илмий даражасини олиш учун ёзилган дис. -Т., 2006. Б. 44.

REZYUME:

Ushbu maqola Farg'ona viloyatida voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining asosiy sabablari va unga ta'sir ko'rsatuvchi ijtimoiy shart-sharoitlarni tahlil qiladi. Tadqiqot natijalari o'g'irlik jinoyatlarining yuqori ulushini ko'rsatib, oilaviy muhit, nazoratning sustligi va ta'lim tizimidagi kamchiliklarni asosiy xavf omillari sifatida belgilaydi.

Kalit so'zlar: jinoyat, sabab, jinoyatchilik, voyaga yetmaganlar, ijtimoiy-muammo, huquqbuzarlik, ijtimoiy muhit, tarbiya, ta'lim-tarbiya.

РЕЗИОМЕ:

В данной статье анализируются основные причины подростковой преступности в Ферганской области и социальные условия, способствующие её формированию. Установлено, что наибольшую

долно составляют кражи, а ключевыми факторами риска выступают семейная среда, слабый контроль и проблемы в образовательной системе.

Ключевые слова: преступление, причина, преступность, несовершеннолетние, социальная проблема, правонарушения, социальная среда, воспитание, образование.

RESUME:

This article examines the main causes of juvenile delinquency in the Fergana region and the social conditions that influence its development. The study reveals that theft crimes form the largest share, while family issues, insufficient supervision, and educational shortcomings are identified as major risk factors.

Key words: crime, cause, criminality, minors, social problem, offenses, social environment, upbringing, education.